



ANDIJON VILOYATI MARHAMAT TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 23-iyun

169-1-24-Q/26

Marhamat tumani hokimligi

Tumanda tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini ajratish bo'yicha onlayn auksionga yer maydonlarini joylashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 71-son qarorining 2-ilovasi 21-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, Andijon viloyati Madaniy meros boshqarmasining, tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limining, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo'yicha Marhamat tuman inspeksiyasining va tuman IIB FMB YHXBning xulosalarini, "O'ZGASHLITIY" MCHJning topografik xartasini hamda Davlat kadastrlari palatasi Marhamat tuman filialining kadastr yig'ma jildini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Marhamat tumani "Ravot" mahalla fuqarolari yig'ini hududida joylashgan ilovaga muvofiq yer maydonlari tuman hokimligi zaxirasida mavjudligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Davlat kadastrlari palatasi Andijon viloyati boshqarmasi (D.Akbarov)dan, mazkur zaxiradagi yer maydonlarini davlat mulki sifatida Marhamat tumani hokimligi nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazib berish so'ralsin.
3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari Sh.Abdurazzaqov va tuman hokimining o'rinbosari D.Ismoilov zimmalariga yuklatilsin.

**Marhamat tumani
hokimi**



I.Umrzaqov

Marhamat tumani hokimining
2026-yil 23-iyundagi
169-1-24-Q/26-son qaroriga
1-ilova

**Marhamat tumanida onlayn auksion orqali savdoga chiqarilayotgan yer
uchastkalari ro'yxati**

T/r	Manzil	Yer uchastkasining “YERELEKTRON” tizimidagi raqami	Maydoni (gektar)
1	“Ravot” MFY	KA1703227011/105	0.001
2	“Ravot” MFY	KA1703227011/106	0.001
3	“Ravot” MFY	KA1703227011/107	0.001
4	“Ravot” MFY	KA1703227011/108	0.001
5	“Ravot” MFY	KA1703227011/109	0.001
6	“Ravot” MFY	KA1703227011/110	0.001
7	“Ravot” MFY	KA1703227011/111	0.001